ISNN 3030-3907

2026/4
VOLUME 9

DEVELOPMENT OF SCIENCE

ILMIY JURNAL



Development of science

Ilmiy jurnal

2026/4 VOLUME 8

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Асадова Раъно Дилмуратовна
Тошкент Давлат техника университети доценти

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

O‘ZBEKISTONDA SANOAT TARMOQLARINI INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBASI VA MAMLAKATIMIZDA RIVOJLANISH KO‘RSATKICHLARI

Mustafayev Shaxzod Shavkat o‘g‘li
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti o‘qituvchisi
E-mail: shaxzod4111994@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonda sanoat tarmoqlarining tarkibiy tuzilmasi, rivojlanish ko‘rsatkichlari va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning dolzarb masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, sanoatni modernizatsiya qilish va samaradorligini oshirishda xorijiy davlatlar, xususan Xitoy va Hindiston tajribasi o‘rganilib, ularning ilg‘or jihatlarini milliy iqtisodiyotga tatbiq etish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida sanoatni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari, muammolari va ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar sanoat, innovatsiya, iqtisodiy o‘sish, sanoat tarkibi, investitsiya, texnologiya, modernizatsiya, infratuzilma, klaster, ishlab chiqarish

Аннотация. В данной статье анализируются структурное строение промышленных отраслей Узбекистана, показатели развития и актуальные вопросы развития инновационной деятельности. Также изучается опыт зарубежных стран, в частности Китая и Индии, в модернизации и повышении эффективности промышленности, рассматриваются возможности внедрения их передовых аспектов в национальную экономику. В результате исследования разработаны основные направления и проблемы развития промышленности, а также научно обоснованные предложения по их устранению.

Ключевые слова: промышленность, инновация, экономический рост, структура промышленности, инвестиция, технология, модернизация, инфраструктура, кластер, производство.

Abstract. This article analyzes the structural composition of industrial sectors in Uzbekistan, development indicators, and topical issues of fostering innovative activity. Furthermore, it examines the experience of foreign countries, specifically China and India, in modernizing and increasing industrial efficiency, exploring opportunities for implementing their advanced aspects into the national economy. As a result of the research, key directions and challenges of industrial development are identified, and scientifically grounded proposals for their mitigation are developed.

Keywords: industry, innovation, economic growth, industrial structure, investment, technology, modernization, infrastructure, cluster, production.

ISSN 3030-3907

KIRISH.

Sanoat milliy iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. U mamlakatning iqtisodiy qudrati, ishlab chiqarish salohiyati va xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Sanoatning rivojlanish darajasi ishlab chiqaruvchi kuchlarning taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, iqtisodiy o‘sishning muhim drayveri sifatida namoyon bo‘ladi. Sanoatning tarmoq strukturasi - sanoat tarkibiga kiruvchi ishlab chiqarish turlari va ularning umumiy hajmdagi ulushi tushuniladi. Ushbu strukturadagi o‘zgarishlar iqtisodiyotning rivojlanish darajasi va yo‘nalishini aks ettiradi.Mamlakatimizda sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida ishlab chiqarish sanoati 83,8 % ni, tog‘-kon sanoati 7,5 % ni, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash 8,1% ni tashkil qilmoqda. Bu ko‘rsatkichlar sanoatda qayta ishlash tarmog‘ining ustuvorligini ko‘rsatadi. Rasmiy statistik ma’lumotlarga ko‘ra 2026 yil 1-yanvar holatida 1 849 650 mlrd so‘mni sa’noat ulushi esa 472 729,7 mlrd so‘mga yetdi. Respublikada 61,1 mingta sanoat korxonasi faoliyat yuritmoqda. Bu esa sanoatning iqtisodiyotdagi o‘rni tobora ortib borayotganidan dalolat beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sanoatni rivojlantirish masalalari iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan bu yo‘nalishda muhim ilmiy ishlanmalar amalga oshirilgan.

Xususan, A.Ortiqov “O‘zbekistonda sanoatni rivojlantirishning qator imkoniyatlari, geografik va iqtisodiy omillari”ga, M.Narziqulov “Sanoatni rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish jarayonida asosiy e’tibor tarkibiy o‘zgarishlarga qaratilganligi”ga, E.Maxmudov “Sanoat tarmoqlari rivojlanishiga sharoit yaratishning 7 strategik yo‘nalishlari, birinchi navbatda budjet, soliq, pul kredit, narx va valuta siyosati kabi vositalarni qamrab olgan qulay makroiqtisodiy muhitni yaratish”ga, bog‘liqliklariga alohida to‘xtalib o‘tishgan. Sanoatni rivojlantirishning dolzarbligi va iqtisodiyotni takomillashtirishda tutgan o‘rnining nihoyat darajada kengligi bilan mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining ham doimiy diqqat markazida bo‘lgan. Xususan, A.Ortiqov “O‘zbekistonda sanoatni rivojlantirishning qator imkoniyatlari, geografik va iqtisodiy omillari”ga, M.Narziqulov “Sanoatni rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish jarayonida asosiy e’tibor tarkibiy o‘zgarishlarga qaratilganligi”ga, E.Maxmudov “Sanoat tarmoqlari rivojlanishiga sharoit yaratishning 7 strategik yo‘nalishlari, birinchi navbatda budjet, soliq, pul kredit, narx va valuta siyosati kabi vositalarni qamrab olgan qulay makroiqtisodiy muhitni yaratish”ga, bog‘liqliklariga alohida to‘xtalib o‘tishgan.1

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, sanoat tarmog‘ining milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda tutgan o‘rnining yuqoriligi sababli mazkur

[1] I.S. XOTAMOV, G.R. MADRAXIMOVA Sanoat iqtisodiyoti darslik Toshkent 2022

ISSN 3030-3907

tarmoqning rivojlanishini ta’minlashga alohida ehtiyoj mavjuddir. Hududlarda sanoatning rivojlanishi murakkab va uzoq muddatli jarayon bo‘lib, buni biz Xitoy, Yaponya, Hindiston, Janubiy Koreya, Lotin Amerikasi mamlakatlari va boshqa dunyoning ko‘plab sanoati rivojlangan davlatlarining tajribalaridan ham ko‘rishimiz mumkin.

Xitoy Xalq Respublikasi iqtisodiyoti nominal YaIM bo‘yicha dunyoda ikkinchi o‘rinda (AQShdan keyin), yalpi ichki mahsulot bo‘yicha xarid qobiliyati pariteti bo‘yicha birinchi o‘rinda (2014- yildan beri) turadi va 2022 yil xalqaro valyuta fondi ma`lumotiga ko‘ra YAIM hajmi 18 trln 321 mlrd 197 mln AQSH qollarini tashkil qilgan bo‘lib, sanoat sektori 2023-yilda Xitoy Xalq Respublikasi yalpi ichki mahsulotining (YaIM) 38,3% ni tashkil etdi. Xitoy sanoatida 10 yirik sanoat tarmoqlari mavjud bo‘lib bulardan eng yirik tarmoq xitoy ishlab chiqarish sanoati hisoblanadi.

1-jadval

№	Sanoat tarmoqlari	Yirik ishlab chiqaruvchilar	Yillik daromadi AQSH dollarda
1	Ishlab chiqarish sanoati	Huawei	99.8 mlrd (2024)
		Foxconn	133 mlrd (2016)
		BYD	58.3 mlrd (2022)
2	Texnologiya va elektronika	Huawei	99.8 mlrd (2024)
		Xiaomi	51,6 mlrd (2021)
		Lenovo	62.8 mlrd (2023)
3	Avtomobil ishlab chiqarish	BYD	58.3 mlrd (2022)
		Zhejiang Geely Holding Group	47,191mlrd (2021)
		NIO	16.2 mlrd (2020)
4	Moliyaviy xizmatlar	Industrial and Commercial Bank of China (ICBC)	105.4 mlrd (2020)
		China Construction Bank	104,4 mlrd, (2023)
		Ping An Insurance	55,8 mlrd (2020)
5	Ko‘chmas mulk	China Vanke	43,06 mlrd (2018)
		Country Garden	63,9 mlrd (2023)
		Evergrande Group	32,2 mlrd (2022)
6	Chakana savdo va elektron tijorat	Alibaba	102.5 mlrd (2022)
		JD.com	taxminan 50 mlrd (2022)

Xitoyning eng yirik sanoat tarmoqlari

ISSN 3030-3907

Hindiston ham YAIM hajmi bo‘yicha beshinchi pog‘onadagi davlatdir. Iqtisodiyoti qariyb 3.5 trillion dollarni tashkil qiladi. YAIM o‘sishi 5 foizni tashkil etgani holda uning o‘sishi 6-6.5 foizga yetishi kutilmoqda. 2014-2019 yillarda 284 mlrd. dollarlik to‘g‘ridan-to‘g‘ri sarmoyalar jalb etildi, bu esa so‘nggi besh yilda bu boradagi o‘sish 190 milliard dollarga yetganligini ko‘rsatadi. 2019 yil dekabr holatiga ko‘ra, xorijiy valyutadagi zahira 457.5 milliard dollarni tashkil etdi. Jahon bankining biznes yuritishning yengilligi borasidagi indeksi bo‘yicha 2014 yilgi 142 pozisiyadan 2019 yilda 63 o‘ringa ko‘tarildi. Milliy infratuzilmalarni taraqqiy ettirish rejasi joriy etgan bo‘lib, uning maqsadi odamlarning turmush sharoitini yaxshilashdir. Kelasi besh yil ichida infratuzilmalarga 1.4 trillion dollar sarflash ko‘zda tutilgan. “Udaan” dasturini qo‘llab-quvvatlash uchun 2024 yilga borib yana 100 ta aeroport qurish kutilmoqda. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish rasmiy Dehli oldida turgan ustuvor vazifalardan biridir. Bu maqsadlar yo‘lida 3.1 milliard dollar ajratildi. Xorijlik sarmoyadorlar uchun ayrim davlat obligasiyalari ta’sis etildi. Ta’lim sektoriga 99 milliard dollar ajratildi: tez orada ta’lim sohasida yangi siyosat e’lon qilinadi. Ta’lim tarmog‘i uchun tashqi tijoriy zayomlar va bevosita xorijiy sarmoyalarga ruxsat beriladigan bo‘ldi. Hindistonda ta’lim olish doirasida Osiyo va Afrika mamlakatlari uchun “Ind-SAT” dasturi tasdiqlandi. Endi sanoatning yangi istiqbolli tarmoqlari – analitika, elektronika, robototexnika, bioinformatika va sun’iy intellekt sohasida kadrlar tayyorlanadi. Ko‘nikmalarni rivojlantirish dasturlariga 420 mlrd. dollar ajratilishi nazarda tutilgan, bunda tibbiyot hamshiralari, feldsher va xorijda bemorlarga qaraydiganlar layoqatini oshirish maqsadida maxsus kurslar tashkil etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida 2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko‘rsatkichlari belgilab berildi. Jumladan **Birinchi bobda** har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish bobida iqtisodiyotning eng tez o‘sib borayotgan yo‘nalishlarida amaliy tadqiqotlarni kuchaytirish, “korxona — oliygoh — ilmiy tashkilot” klaster tizimini joriy etish eng asosiy masalalardan biri qilib belgilanib, amaliy tadqiqotlarga Davlat budjetidan 4 trillion so‘m mablag‘ yo‘naltirish, Iqtisodiyot tarmoqlarining “drayver” yo‘nalishlarida 850 turdagi innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish, amaliy tadqiqotlar natijalari asosida 2,5 mingdan ziyod yangi ilmiy ishlanmalar yaratish, transport va logistika, qishloq xo‘jaligida hosildorlik, energetika, biotexnologiya, geologiya va metallni qayta ishlash, mashinasozlik va elektronika yo‘nalishlarida 8 ta ilmiy ishlab-chiqarish klasterini tashkil etish muhim vazifalardan biri etib belgilangan bo‘lsa,

ISSN 3030-3907

Ikkinch bobida Barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash uchun mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg‘or texnologilarga asoslangan sanoatni rivojlantirish orqali sanoatda ishlab chiqariladigan texnologik mahsulotlar ulushini 25 foizdan 32 foizga yetkazish, Qayta ishlash sanoatida mehnat unumdorligini 2 barobar oshirish, Yuqori daromadli mahsulot uchun zarur bo‘lgan mis ishlab chiqarishni 3,5 barobar, oltin — 1,5 barobar, kumush — 3 barobar, uran — 3 barobar oshirish, kon zaxiralarini baholashda ilg‘or xalqaro standartlarni keng joriy qilish, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Navoiy, Toshkent va Farg‘ona viloyatlarida yirik kimyo-polimer klasterlarini tashkil etish va yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarish korxonalarini ishga tushirish, avtomobilsozlik sohasida raqobat muhitini yaratish va ishlab chiqarish hajmini 1 million donaga yetkazish, elektrotexnika sanoatida misni qayta ishlash hajmini 300 ming tonnaga oshirish va barcha maishiy texnikani ishlab chiqarishni mahalliylashtirishga 1,5 milliard dollar investitsiya jalb qilish nazarda tutilgan bo‘lsa, sanoatning “drayver” sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to‘liq ishga solish orqali sanoatda qo‘shilgan qiymat hajmini 45 milliard dollarga yetkazish va 2,5 millionta yuqori daromadli ish o‘rinlarini yaratish, yirik korxonalar tomonidan import o‘rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish va hududiy korxonalar bilan kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, sanoat kooperatsiyasini yo‘lga qo‘ygan korxonalarni faol rag‘batlantirish tizimini joriy qilish, har bir tumanda zamonaviy texnologik sanoat zonalarini tashkil etish asosiy vazifalardan biri etib belgilandi[2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Tadqiqot jarayonida statistik tahlil, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, mantiqiy umumlashtirish ilmiy usularidan foydalangan holda sanoatning joriy ko‘rsatkichlarini o‘rganish, xorijiy tajribani tahlil qilish, sanoat tarmoqlarini kompleks baholash, ilmiy xulosalar chiqarish orqali orqali sanoat rivojlanishining hozirgi holati va istiqbollari chuqur tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Mazkur tadqiqot doirasida olib borilgan statistik tahlillarga ko‘ra 2026 yil 1-yanvar holatida 1 849 650 mlrd so‘mni sa’noat ulushi esa 472 729,7 mlrd so‘mga yetdi.[3] O‘zbekistonda 2026-yil 1-mart holatiga ko‘ra, respublikada 61,1 mingta sanoat korxonasi faoliyat yuritmoqda. Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida korxonalarning katta qismi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – 12,2 mingta (20,0 %); - boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – 8,5 mingta (13,9 %); - kiyim ishlab chiqarish – 6,1 mingta (10,1 %); - tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish – 5,0 mingta (8,1 %); -

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son
[3] https://stat.uz/uz

ISSN 3030-3907

mebel ishlab chiqarish – 4,2 mingta (6,9 %); - to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – 3,8 mingta (6,2 %); - rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish – 2,9 mingta (4,7%) to‘g‘ri keldi.

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,1 foizni, o‘rta-yuqori texnologiyali – 18,5 %, o‘rta-quyi texnologiyali – 46,6 %, quyi texnologiyali – 33,8 foizni tashkil etgan.

Tahlillar asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

✓ Yuqori texnologiyali sanoat ulushini oshirish
✓ Innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish
✓ Ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish
✓ Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish
✓ Hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirish
✓ Raqamli texnologiyalarni joriy etish
✓ Energetika samaradorligini oshirish
✓ Eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish

XULOSA. Ushbu tadqiqot natijalariga ko‘ra sanoat tarmoqlarini innovatsion rivojlantirish O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror o‘sishini ta’minlaydi. Xorijiy tajribani o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, innovatsiyalar, investitsiyalar va ilm-fan integratsiyasi sanoat rivojining asosiy omillaridir. Innovatsion texnologiyalar, ilm fan yutuqlarini hamda raqamli texnologiyalardan sanoat tarmoqlarida foydalanish shuningdek ekspertbop homashyolar ishlab chiqarish hajmini oshirish, chetdan kiraddigan investitsiya hajmini oshirish mamlakatimizni nafaqat iqtisodiy o‘sishini ta’minlashda balki aholi farovonligini oshirishda mamlakatda sanoat korxonalari ko‘payishi natijasida xalq orasida ishsizlar soni kamayishida ham muhim omil bo‘lib xizmat qiladi Olib borilgan tahlillar shuni xulosa qilish mumkinki So‘nggi davrda sanoatda tarkibiy o‘zgarishlar sodir bo‘lib, uning iqtisodiyotdagi ulushi va ishlab chiqarish salohiyati sezilarli darajada oshgan. Biroq mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalanilmayapti. Buning asosiy sabablari sifatida quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

✓ xomashyo resurslaridan foydalanish samaradorligining pastligi;
✓ investitsiyalarning asosan ichki bozorga yo‘naltirilishi va eksport salohiyatining yetarli darajada oshmasligi;
✓ ishlab chiqarish quvvatlarining eskirganligi, bu esa yuqori tannarx va past raqobatbardoshlikka olib kelmoqda;
✓ energiya va qo‘l mehnatiga bog‘liqlikning yuqoriligi. Shu sababli sanoatda investitsion siyosatni takomillashtirish zarur.

ISSN 3030-3907

Sanoatni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakat iqtisodiy barqarorligini oshirib, aholining turmush darajasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 15.12.2010 y. № PQ,-1442 sonli “2011-2015 yillarda O‘zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishari to‘g‘risida”gi qarori.
3. I.S. XOTAMOV, G.R. MADRAXIMOVA Sanoat iqtisodiyoti darslik Toshkent 2022.
4. A.Ortikov. Sanoat iqtisodi. Darslik. T.: TDIU, 2009.
5. Стратегия далнейшего повишения конкурентоспособности националной экономики: материали IV-го Форума экономистов / отв. ред. М.П. Нарзикулов. Ташкент. Вак1паРгез$, 2012.
6. E.X. Maxmudov, A. Ortikov, F. Karimov. Korxona iqtisodiyotning asosiy bo‘g‘ini. / Hamkor. 2010 yil 7 fevral.
7. www.google.com.
8. https://stat.uz/uz.
9. https://www.wikipedia.org

ISSN 3030-3907